

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.09/31.08.2022.I.151.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**SAXIBOV OYBEK KUYLIYEVICH**

**PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH  
VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
in Economics**

**Saxibov Oybek Kuyliyevich**

Professional ta’lim muassasalarini moliyalashtirish va rivojlantirish istiqbollari.....3

**Сахибов Ойбек Куйлиевич**

Перспективы финансирования и развития профессионального учебного заведения.....27

**Sakhibov Oybek Kuylievich**

Prospects of financing and development of vocational educational institutions.....53

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.09/31.08.2022.I.151.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**SAXIBOV OYBEK KUYLIYEVICH**

**PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH  
VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Iqt499 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bfa.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:** Eshnazarov To'liq Sheraliyevich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Husanov Durbek Nishonovich  
iqtisodiyot fanlari doktori  
To'rayev Shavkat Shuxratovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.9/31.08.2022.I.151.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "30" 08 soat 11.30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Movarounnaxr ko'chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 237-54-01, faks: 71 237-50-11. e-mail: office@bfa.uz

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (33 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Movarounnaxr ko'chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 237-54-09, faks: 71 237-50-11. e-mail: office@bfa.uz


Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "18" 08 kuni tarqatildi.  
(2023 yil "18" 08 dagi № 2 raqamli reestr bayonnomasi).



**N.X.Jumayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d. professor

**Sh.A.Xusainov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.n.

**S.E.Elmirzayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda professional ta'lim muassasalarini davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag'lardan moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Yevropa mamlakatlarida professional ta'limni rivojlantirishda, jumladan Germaniyada 2023-yilgi budjetdan 1,94 milliard yevro, shundan professional ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun 700 mln. yevro, Finlyandiyada professional ta'lim uchun 102 mln.yevro ajratilgan, 2023-yildan professional ta'limni moliyalashtirish bazasini mustahkamlash uchun 50 mln. yevro miqdorida doimiy mablag' ajratish ko'zda tutilgan. Rossiyada 2021-yilda 305,6 milliard rubl ajratilgan"<sup>1</sup>. Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti professional ta'lim tizimini davlat budjetidan moliyalashtirish, professional ta'limning moliyaviy resurslarni oshirish zarur ekanligini ko'rsatadi.

Jahonda professional ta'limni moliyalashtirishda budjetdan tashqari mablag'larni keng jalb etish, professional ta'lim muassasalari moliyaviy resurslari manbalarini diversifikatsiya qilish, professional ta'limga homiylik yordamlari, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, venchurli moliyalashtirish mexanizmini kengaytirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishida bajarilayotgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, professional ta'lim tizimi moliyaviy resurslarini oshirishda ish beruvchilar mablag'lari hisobidan kadrlar tayyorlash, professional ta'lim muassasalari xarajatlarini optimallashtirish, dual ta'lim shaklini tashkil etish, professional ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik tizimini joriy etish yo'nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarni jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi, kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish ish beruvchilarning takliflari hamda "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'z navbatida professional ta'limni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, professional ta'limda xodimlar mehnatiga haq to'lashni yangi mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida professional ta'limni moliyaviy qo'llab quvvatlash sohasida ilmiy-tadqiqotlarni yanada kengaytirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni, 2021-yil 31-avgustdagi PQ-5241-son "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil

<sup>1</sup> <https://www.bmbf.de/bmbf/en/ministry/budget/the-budget-of-the-federal-ministry-of-education-and-research.html>.

31-dekabrda PQ-4939-son “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida” qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-iyuldagi 411-son “O’rta va o’rta maxsus professional ta’lim muassasalarida sirtqi va kechki ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2020-yil 7-avgustdagi 466-son “O’zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang’ich, o’rta va o’rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi qarorlari hamda boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo’nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o’rganilganlik darajasi.** Professional ta’limda moliyaviy resurslarni boshqarish va moliyalashtirishning samarali tizimini ishlab chiqish, budjetdan tashqari mablag’larni jalb etishni kengaytirish va ulardan samarali foydalanish masalalari xorijiy iqtisodchi olimlardan I.Abankin, S.Belyakov, T.Klyachko, Ye.Polushkin, L.Bogoslavseva, A.Vifleemskiy, Ye.Davidova, N.Snopko, V.Tadtayeva<sup>2</sup> va boshqalarning asarlarida keng yoritilgan. O’zbekistonda ta’lim tizimini moliyalashtirish T.Malikov, A.Vahobov, N.Haydarov, T.Eshnazarov, N.Jumayev, U.Burxanov, D.Rahmonov, M.Saidov, X.Qobulov, D.Nabiyev, X.Rejapov, B.Nurmuxammedova, Sh.Rasulov, D.Rustamova, K.Ibragimov, E.Odilov<sup>3</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida o’z ifodasini topgan.

---

<sup>2</sup> Абанкина И.В., Савицкая Е.В. Бюджетное финансирование образовательных учреждений: структура и источники денежных средств // Вопросы статистики. 2006. №7. – С.45-52; Беляков С.А., Клячко Т.А., Полушкина Е.А. Среднее профессиональное образование: состояние и прогноз развития. – М.: «Дело» РАНХиГС, 2018. – 48 с.; Богославцева Л.В. Развитие программно-целевого метода финансирования социально-ориентированных расходов бюджета региона // <https://cyberleninka.ru>. – 2016. – № 10. – С.47–52; Вифлеемский А. Норматив бюджетного финансирования: не повышение качества образования, а снижение затрат // Народное образование. 2003. — №10. — С.43-50; Савицкая Е.В., Давыдова Е.А. Начальное и среднее профессиональное образование: итоги мониторинга // Экономика образования. 2006. №2; Снопко Н.М. Модернизация системы среднего профессионального образования. — М.: Изд-во АПО, 2007. — 187 с.; Тадтаева В. В. Совершенствование механизма финансирования образования: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10 / В. В. Тадтаева. — Владикавказ: Сев-Кавказ. гор-металлург. ин-т., 2007.

<sup>3</sup> Malikov T.S. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 376 b; Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: Darslik. – T.: Noshir, 2011. – 316 b.; Malikov T.S., Haydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. O’quv qo’llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 556 b.; Eshnazarov T.Sh. Davlat moliyasi: byudjet munosabatlarini takomillashtirish va uning istiqbollari. Makroiqtisodiy barqaror o’rishni ta’minlashda statistik usullar va axborotlar rolini kuchaytirish mavzusidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to’plami. – T. 2020. — 158 b.; Jumayev N.X., Rahmonov D.A. Oliy ta’lim olishni xususiy manbalardan moliyalashtirish: nazariya va amaliyot. T.: “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2018.; Raxmonov D. O’zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishni takomillashtirishning metodologik asoslari. – T.: Fan va texnologiyalar, 2017. – 248 b.; Vaxobov A, Burxanov U, Jumayev N. Chet mamlakatlar moliyasi. Darslik. — T.: “Yangi asr avlodi”, 2003-y. – 344 b; Qobulov X.A., Kimsanboyeva M.B. Ta’lim tizimini moliyalashtirishni isloh qilish masalalari. – T.: “Science and Education” Scientific Journal”, 2021. — 698 b; Nabiyev D. Ta’lim sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2005; Pulatov D., Nurmuxammedova B. G’aznachilik. Darslik. – T.: Sano-standart, 2014. – 272 b.; Odilov E. O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2012.

Ta'kidlash lozimki, respublikamiz olimlari tomonidan professional ta'lim muassasalarini moliyalashtirish masalasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent moliya institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqot yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** professional ta'limni moliyalashtirish va rivojlantirish istiqbollari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

professional ta'lim tizimini moliyalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritish;

professional ta'lim tizimidagi moliyaviy munosabatlar subyektlarini tahlil qilish;

professional ta'lim tizimida moliyaviy resurslarning shakllantirish va ulardan foydalanish asoslarini o'rganish va tegishli xulosalarni shakllantirish;

professional ta'limni moliyalashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qilish va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

professional ta'limni moliyalashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

professional ta'limni moliyalashtirishning muqobil manbalari va mexanizmlarini taklif etish;

professional ta'lim muassasalariga investitsiyalarni jalb qilishning samarali mexanizmlari bo'yicha ilmiy takliflar va xulosalar berish.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekiston Respublikasidagi professional ta'lim muassasalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** professional ta'lim tizimini moliyalashtirish bilan bog'liq moliyaviy va iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida taqqoslash, guruhlash, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik usullar, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

professional ta'lim tizimida budjet xarajatlarini tartibga solish, budjet mablag'laridan tashqari moliyaviy resurslar va ularni manbalarini topish va samarali ishlatishni yo'lga qo'yish maqsadida professional ta'lim muassasalari shtat jadvalini rahbar xodimlar funksional vazifalarini qayta taqsimlash hisobiga optimallashtirish taklifi asoslangan;

professional ta'lim tizimida dual ta'limni joriy etish orqali ishlab chiqarish ta'lim ustalari o'quv yuklamalarini qisqartirish hisobiga kadrlar tayyorlash xarajatlarini optimallashtirish taklifi asoslangan;

“direktor jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan professional ta’lim muassasalarida alohida o‘rnak ko‘rsatgan o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’lim ustalariga har oylik ustamalar belgilash tartibiga umumiy baholash ko‘rsatkichlarini guruhlash mezonlarini kiritish asosida soddalashtirish taklif etilgan;

professional ta’lim tizimida ish haqi fondiga nisbatan ijtimoiy soliqning kamaytirilgan 12 foizli stavkasini qo‘llash taklif etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

professional ta’limni moliyalashtirish bo‘yicha xorijiy tajribalar o‘rganilgan va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

professional ta’limda davlat-xususiy sheriklik tizimini joriy etish orqali moliyalashtirish manbalarini kengaytirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

professional ta’limda xodimlar mehnatiga haq to‘lashni yangi mexanizmlarini joriy etish taklif etilgan;

professional ta’limni moliyalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan yondashuvning ilmiy asosliligi, foydalanilgan materiallarning O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy manbalardan olingani hamda xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar faoliyatiga joriy etilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati professional ta’lim muassasalarini moliyalashtirish tartibi, ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi, professional ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan xulosalar va takliflar mavzu bo‘yicha uslubiy apparatni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning asosiy natijalaridan professional ta’lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish bo‘yicha takliflar tizimini rivojlantirish strategiyasini va uning faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda davlat va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida, professional ta’lim muassasalari faoliyatida qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Professional ta’lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

professional ta’lim tizimida budjet xarajatlarini tartibga solish, budjet mablag‘laridan tashqari moliyaviy resurslar va ularni manbalarini topish va samarali ishlatishni yo‘lga qo‘yish maqsadida professional ta’lim muassasalari shtat jadvalini optimallashtirish taklifi professional ta’lim muassasalarida “direktorning moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha o‘rinbosari” lavozimini joriy etish hamda sirtqi va kechki ta’lim bo‘yicha shtat birliklarini kiritish Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-iyuldagi 411-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim muassasalarida sirtqi ta’limni tashkil etish tartibi



to'g'risida nizom" hamda "O'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida kechki ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida nizom" hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Moliya vazirligining "Akademik litsey, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlarini tasdiqlash to'g'risida" qarori loyihalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-avgustdagi 89-05-64-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2021/2022 o'quv yilida 360 ta kollej va texnikumlarda sirtqi bo'lim boshlig'i va uslubchi hamda kechki (smenali) ta'lim uchun o'quv-metodik ishlar bo'yicha uslubchi shtat birliklari joriy etilgan. Barcha professional ta'lim muassasalarida qo'shimcha pul mablag'lari ishlab topishni yo'lga qo'yish maqsadida "direktorning moliya-iqtisod ishlari bo'yicha o'rinbosari" shtati joriy etilgan hamda 2021/2022 o'quv yilida sirtqi va kechki ta'limni shaklini tashkil etilishi kollej va texnikumlarda o'rtacha 131,6 mlrd. so'm qo'shimcha mablag' tushishiga erishilgan;

professional ta'lim tizimida dual ta'limni joriy etish hisobiga ishlab chiqarish ta'lim ustalari yuklamalarini kamaytirish va kadrlar tayyorlash xarajatlarini optimallashtirish taklifi professional ta'lim muassasalari tomonidan korxonalar bilan hamkorlikda dual ta'lim shakli bo'yicha o'quv reja va o'quv jarayoni grafigini ishlab chiqishda haftada mos ravishda 2-3 kun ta'lim muassasasida 3-4 kun korxonada o'quv yuklamalarini bajarish, ta'lim muassasalarida bajariladigan o'quv yuklamalarini kamayishi hisobiga ishlab chiqarish ta'limi ustalari shtatlarini har bir guruhga bittadan joriy etish optimallashtirilgan bo'lib, "Professional ta'lim muassasalarida dual ta'limning o'quv reja va o'quv jarayoni grafiklarini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyalar"ni ishlab chiqishda foydalangan hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-oktyabrdagi 2/12-23/10-son topshirig'i bilan professional ta'lim muassasalariga joriy etilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-iyundagi 03/18-1250-son ma'lumotnomasi). Natijada, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari tomonidan to'langan kontraktning dual ta'lim shaklida 50-70 foizi, sirtqi ta'lim shaklida 80 foizi va kechki ta'lim shaklida 45 foizi ta'lim muassasasining maxsus hisob raqamiga tushish, buning hisobidan professional ta'lim muassasalarining moliyaviy holatini yaxshilashga erishilgan;

"direktor jamg'armasi" mablag'lari hisobidan professional ta'lim muassasalarida alohida o'rnak ko'rsatgan o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'lim ustalariga har oylik ustamalar belgilash tartibini soddalashtirish taklif etilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-iyundagi 03/18-1250-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi hisobidan professional ta'lim muassasalari o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'lim ustalari mehnatiga haq to'lash va ularga ustama belgilashning yangi tartibini ishlab chiqishga erishilgan;

professional ta'lim muassasalari tomonidan ishlab topiladigan moliyaviy mablag'lari samaradorligini oshirish maqsadida professional ta'lim muassasalari tomonidan ishlab topiladigan mablag'larga soliq yukini kamaytirish hamda ushbu

tizimni moliyaviy qo'llab quvvatlash uchun ta'lim muassasalariga ijtimoiy soliqning kamaytirilgan 12 foizli stavkasi qo'llanilishi taklif etilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-iyundagi 03/18-1250-son ma'lumotnomasi). Natijada, professional ta'lim muassasalari tomonidan ishlab topilgan pul mablag'larini 13 foizi ta'lim muassasasi ixtiyorida qolish imkoniyatini beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlar ro'yxatidagi jurnallarda 3 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Professional ta'lim tizimini moliyalashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida professional ta'lim tizimini moliyalashtirishning mohiyati va ahamiyati yoritilgan, professional ta'lim tizimidagi moliyaviy munosabatlar subyektlari tahlil qilingan, professional ta'lim tizimida moliyaviy resurslarning shakllantirish va ulardan foydalanish asoslari o'rganilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Bugungi kunda professional ta'limga bo'lgan talab, zamonaviy ishlab chiqarish tarkibida o'rta maxsus ma'lumotli kadrlarning egallagan o'rni va ularni tayyorlash iqtisodiy jihatdan qanchalik oqlayotganligi haqidagi masalalar har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega. Xususiy sektorning oliy ma'lumot talab qilinmaydigan lavozimlarga oliy ma'lumotli mutaxassislarni ishga olishga intilishi professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishga joylashish va mansabda o'sish imkoniyatlarini toraytiradi. Ushbu ta'lim darajasiga ko'pincha keyinchalik oliy ma'lumot olish uchun bosqich sifatida va shu munosabat bilan kasbga yo'naltirish omili sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunining 62-moddasiga muvofiq davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan, tumanlar va shaharlar budjetlaridan, kadrlar buyurtmachilarining mablag'lari hisobidan, shuningdek budjetdan tashqari mablag'lar hamda qonun hujjatlarida

taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi belgilangan.<sup>4</sup>

Kasb-hunar maktablari kadrlarni tayyorlash bilan bog‘liq xarajatlar davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Kollej va texnikumlarning asosiy moliyaviy manbalari sifatida o‘quvchilardan to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar hisoblanadi. Professional ta‘lim sohasidagi moliyaviy munosabatlar subyektlari quyidagilar hisoblanadi: ta‘lim sohasidagi vakolatli ijro etuvchi hokimiyat organlari; pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish muassasalari; kadrlarni tayyorlash va taqsimlash ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi jamoat tashkilotlari va muvofiqlashtiruvchi kengashlar; o‘quvchilar va ularning vakillari; o‘z tarkibida ishlab chiqarish tashkilotlariga ega bo‘lgan va ularni moliyalashtiruvchi ish beruvchilar; jismoniy shaxslar.

Professional ta‘lim muassasalarini daromadlari va xarajatlari belgilangan aniq maqsadlar asosida amalga oshiriladi (1-jadval).

**1-jadval**

**Professional ta‘lim muassasalarining daromad manbalar va xarajatlari yo‘nalishlari<sup>5</sup>**

<b>Daromadlar</b>	<b>Xarajatlar</b>
<b>Kasb-hunar maktablari</b>	
1. Davlat budjeti mablag‘lari; 2. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish (ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish, maslahatlar berish, ekspertiza qilish, noshirlik ishlari va ishlab chiqarishning boshqa turlari yo‘lga qo‘yish) olgan daromadlar; 3. Xalqaro moliya institutlari grant mablag‘lari; 4. Qonunchilikda ta‘qiqlanmagan mablag‘lar.	1. Ish haqi xarajatlari (boshqaruv va pedagogik xodimlari ish haqi hamda ustamalar) 2. Ish haqidan ajratma 3. Kapital ta‘mirlash xarajatlari 4. Boshqa xarajatlar (Ta‘lim muassasani saqlash va moddiy texnika bazasini mustahkamlash)
<b>Kollej va texnikumlar</b>	
1. Davlat budjeti mablag‘lari; 2. Tegishli vazirlik, idoralarning budjetdan tashqari mablag‘lari; 3. To‘lov-kontrakt mablag‘lari; 4. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish (ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish, maslahatlar berish, ekspertiza qilish, noshirlik ishlari va ishlab chiqarishning boshqa turlari yo‘lga qo‘yish) olgan daromadlar; 5. Xalqaro moliya institutlari grant mablag‘lari. 6. Qonunchilikda ta‘qiqlanmagan mablag‘lar.	1. Ish haqi xarajatlari (boshqaruv va pedagogik xodimlari ish haqi hamda ustamalar) 2. Ish haqidan ajratma 3. Kapital ta‘mirlash xarajatlari 4. Boshqa xarajatlar (Ta‘lim muassasani saqlash va moddiy texnika bazasini mustahkamlash)

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi tomonidan ta‘lim yo‘nalishlari kesimida to‘lov-kontrakt asosida bir o‘quvchini o‘qitish qiymati miqdorlari belgilandi (2-jadval).

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son

<sup>5</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

## 2-jadval

### 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab kollejlarda va texnikumlarda ta’lim yo‘nalishlari kesimida to‘lov-kontrakt asosida bir o‘quvchini o‘qitish qiymati miqdorlari<sup>6</sup>

T/r	Ta’lim yo‘nalishlari nomi	Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori barobarida
1.	“Sog‘liqni saqlash”, “Pedagogika”, “Biznes va boshqaruv”, “San’at”, “Ijtimoiy ta’minot”, “Xizmat ko‘rsatish”, “Jurnalistika va ijtimoiy axborot”	6,2
2.	“Tabiiy fanlar”, “Transport”, “Muhandislik ishi”, “Aloqa va axborotlashtirish, telekommunikatsiya texnologiyalari”, “Kompyuter texnologiyalari va informatika”, “Gumanitar fanlar”	6,0
3.	“Qishloq xo‘jaligi irrigatsiya va melioratsiyasi”, “Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi”, “Ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlari”, “Arxitektura va qurilish”, “Hayotiy faoliyat xavfsizligi”, “Qishloq xo‘jalik texnikasi”, “Veterinariya”, “Atrof-muhit muhofazasi”	5,8

2-jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, asosan talab yuqori bo‘lgan sohalar, ya’ni sog‘liqni saqlash, pedagogika, biznes va boshqaruv, san’at, ijtimoiy ta’minot kabi sohalarida to‘lov-kontrakt miqdori yuqoriroq belgilangan. Mazkur yo‘nalishlarda 2020/2021 o‘quv yilida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 822,0 ming so‘mligidan kelib chiqib, 1 (bir) nafar o‘quvchining bir yilgi o‘qitish xarajatlari 4 685,4 ming so‘mni tashkil qiladi.

Professional ta’lim tizimini moliyalashtirish, jumladan ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari hamda texnik, xizmat ko‘rsatuvchi, o‘quv yordamchi va boshqa xodimlarining lavozim maoshlarini belgilashda, mehnatga haq to‘lashning takomillashtirilgan mexanizmini joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bu esa o‘z navbatida ta’lim muassasalarida moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishga, ta’lim sifatini oshirishga, rahbar va pedagog xodimlari hamda texnik, xizmat ko‘rsatuvchi, o‘quv yordamchi va boshqa xodimlarini ta’lim muassasasi rivojiga qo‘shgan hissasiga qarab mehnatiga munosib haq to‘lashga, ta’lim xizmatlari bozoridagi talab va takliflardan kelib chiqib faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi – **“O‘zbekiston Respublikasi professional ta’lim tizimini moliyalashtirishning bugungi holati”** deb nomlanib, unda professional ta’lim tizimini moliyalashtirish ko‘rsatkichlari tahlil qilingan va budjetdan tashqari mablag‘larning manbalarini jalb qilish imkoniyatlari baholangan.

O‘zbekiston Respublikasida 704 ta professional ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatib, ularning 330 tasini kasb-hunar maktabi, 166 tasini kollej, 208 tasini texnikumlar tashkil etadi.

2020/2021 o‘quv yilidan boshlab barcha kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlarda direktorning moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha o‘rinbosari faoliyat yuritib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoniga muvofiq kollej va texnikumlarda kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to‘lov-kontrakt asosida o‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlash

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi bayoni.

belgilangan. Bu esa, kollej va texnikumlarda kechki va sirtqi shakllari bo'yicha kadrlar tayyorlashni normativ-huquqiy bazasini yaratishni taqozo qiladi.

Kasb-hunar maktablari o'quvchilari to'liq davlat budjeti (granti) asosida, kollejlarda o'quvchilari esa 15,7 foiz davlat granti, 84,3 foizi to'lov-shartnoma (kontrakt), texnikumlar o'quvchilarining 13,1 foizi davlat granti, 86,9 foizi to'lov-shartnoma (kontrakt) asosida tahsil oladi.

Shu bilan birga 2022/2023 o'quv yilida kollej va texnikumlarda kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha o'quvchilar 59 165 nafarni tashkil etdi. Kollej va texnikumlarda sirtqi ta'lim shakli bo'yicha 55 809 nafar o'quvchilar, kechki ta'limda 3 356 nafar o'quvchilar ta'lim olgan.

Kollej va texnikumlarda sirtqi va kechki ta'limni shakllari bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlanishi o'rtacha 289,9 mlrd. so'm to'lov-kontrakt mablag'lari qo'shimcha sifatida ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari sifatida kiritilgan. Kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha to'lov-kontrakt summalarini tushishida kollej va texnikumlar moliyaviy mablag'laridan samarali foydalanish, ta'lim sifatini mustahkamlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xodimlarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltirish imkoniyatini oshiradi.

Mehnat bozorida kadrlar tayyorlashni dual ta'lim asosida amalga oshirishi, bu ish beruvchilar, ya'ni korxonalar va tashkilotlarga hamda ta'lim muassasalariga moliyaviy imkoniyatlarini oshiradi. Dual ta'lim shaklida o'quv rejaning amaliy qismlarini korxonalar va tashkilot tomonidan o'quvchilarga birlashtirilgan "ustoz"lar tomonidan olib boriladi hamda bunga hisoblanadigan ish haqi korxonalar va tashkilotlar mablag'lari hisobidan birlashtirilgan "ustoz"larga ichki tartib qoidalarga muvofiq to'lab beriladi.

### 3-jadval

#### Kadrlar tayyorlashda kunduzgi va dual ta'lim shaklida o'quv soatlar taqsimoti<sup>7</sup>

T/r	Mutaxassislik nomi	O'quv soat	Kunduzgi ta'limda				Dual ta'limda			
			Ta'lim muassasasida o'tiladi	%da	Korxonada o'tiladi	%da	Ta'lim muassasasida o'tiladi	%da	Korxonada o'tiladi	%da
1.	Buxgalter	2160	1284	59	876	41	1080	50	1080	50
2.	Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish	2880	2045	71	835	29	1400	50	1400	50

3-jadval ma'lumotidan shuni ko'rish mumkinki, dual ta'lim shakli bo'yicha o'rtacha korxonada o'tiladigan amaliyot soatlari jami o'quv yuklamaning 50 foizini tashkil qiladi. Bu esa o'qish uchun to'langan to'lov kontrakt summasini 50 foizi professional ta'lim muassasasini budjetdan tashqari mablag'ni hisobidan shakllanib qoladi.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Professional ta'lim tizimiga davlat budjetidan ajratilgan mablag'larning YaIMga nisbati 0,3 foizni tashkil etadi (4-jadval).

#### 4-jadval

#### Oliy va professional ta'lim tizimiga davlat budjetidan ajratilgan mablag'larni yalpi ichki mahsulotga nisbati o'zgarish dinamikasi<sup>8</sup>

Ko'rsatkich-lar	Ijro qilish, trln. so'm						YaIM hajmiga nisbatan %					
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2017	2018	2019	2020	2021	2022
YaIM	317,5	426,6	532,7	605,5	738,4	888,3	100	100	100	100	100	100
Ta'lim sohasiga xarajat	29,8	27,6	28,4	30,0	31,5	364,4	9,4	6,5	5,3	5,0	4,3	4,1
Shundan:												
Oliy ta'lim	2,6	2,6	2,7	2,3	2,9	4100	0,8	0,6	0,5	0,4	0,4	0,5
Professional ta'lim	1,5	1,8	2,3	1,3	1,7	2,2	0,5	0,4	0,4	0,2	0,2	0,3

4-jadvaldan ko'rinadiki, 2017-2022-yillar mobaynida professional ta'lim tizimiga davlat budjetidan ajratilgan mablag'larning YaIMga nisbati 0,5 foizdan 0,3 foizga kamaygan. So'ngi yillarda mamlakat YaIMning o'sishi bilan bir qatorda ta'lim sohasi jumladan, professional ta'lim tizimi xarajatlari kamaygan. Bu esa, mamlakat iqtisodiyotini o'rta bo'g'im mutaxassislariga bo'lgan talabga salbiy ta'sir etishi va sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalarini rivojlanishini pasayishiga olib kelishi mumkin. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sohasi jumladan, professional ta'limga alohida e'tibor qilinadi va davlat budjeti tomonidan qo'llab quvvatlanadi. Professional ta'lim tizimining ayrim talabalari ta'minoti ham davlat budjeti hisobiga qoplanadi. Ushbu amaliyotni O'zbekiston miqyosida ham qo'llash kelajakda iqtisodiyotga o'rta bo'g'im mutaxassislarini yetarli darajada yetkazib berishga katta xizmat qiladi. Chunki har qanday mamlakatning ishlab chiqarishini rivojlanishi malakali ishchi va xizmatchilarga bog'liq hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda YaIM nisbatan ta'limga qilingan xarajatlar jumladan, Shvetsiyada 2018-yilda 7 foizni, Fransiyada 5,2 foizni, Germaniyada 4,6 foizni, Rossiyada esa 3,5 foiz (2020-yil 4,0 foiz)ni tashkil etgan. Davlat budjetidan Shvetsiyada 15,3 foiz, shundan oliy ta'limga 3,4 foiz, Fransiyada 9,7 foiz, shundan oliy ta'limga 1,7 foiz, Germaniyada 11,2 foiz, shundan oliy ta'limga 2,9 foiz, Rossiyada esa 2020-yilda 10,7 foiz shundan oliy ta'limga 1,6 foiz xarajat qilingan. Shu bilan birga Rossiyada o'rta maxsus ta'lim, 2019-yilda 7,9 foizga 2020-yilda 5,8 foizga oshgan<sup>9</sup>.

Professional ta'lim muassasalari daromadlaridan ta'lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, pedagog kadrlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularni moddiy rag'batlantirish imkoniyatini oshirish maqsadida ijtimoiy soliq stavkasini 25 foizdan 12 foizga tushish asoslab berilgan. Natijada professional ta'lim muassasalari tomonidan ishlab topilgan pul mablag'larini 13 foizi ta'lim muassasasi ixtiyorida qolishi tahlil qilingan (5-jadval).

<sup>8</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>9</sup> 2022 образование в сифрах ктаркий статистичекый сборник. // Москва 2022, стр 26-29

**Qashqadaryo viloyati professional ta'lim muassasalarida yagona ijtimoiy to'lovni to'lash dinamikasi, mln. so'm<sup>10</sup>**

№	Ko'rsatkichlar	2020-yil		2021-yil		2022-yil	
		Jami mablag'lar	Shundan, budjetdan tashqari mablag'	Jami mablag'	Shundan, budjetdan tashqari mablag'	Jami mablag'	Shundan, budjetdan tashqari mablag'
1	Ish haqi fondi	34972,5	3814,9	57315,3	13452,1	79036,6	16224,2
2	Ish haqidan ajratma (25%)	8743,1	953,7	14328,8	3363,0	19759,2	4056,1
3	Ish haqidan ajratma (13%)	4546,4	495,9	7451,0	1748,8	10274,8	2109,1

Tahlillar natijasiga ko'ra, Qashqadaryo viloyatidagi tahlil qilingan professional ta'lim muassasalari tomonidan 2022-yilda 275,9 milliard budjetdan tashqari mablag'lar ishlab topilgan. Shundan, 12,1 milliard so'm ish haqi sifatida berilgan. 2023-yil 5 oy davomida 37,7 milliard so'm budjetdan tashqari pul ishlab topilgan bo'lsa 9 milliard so'm ish haqi sifatida to'langan.

Bugungi kunda professional ta'lim muassasalari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 25 foizligi hisobiga 2020-yil 8,7 milliard so'm, budjetdan tashqari ishlab topilgan mablag'lardan 953,7 million so'm, 2021-yil 14,3 milliard so'm, budjetdan tashqari ishlab topilgan mablag'lardan 3,4 milliard so'm, 2022-yil 19,8 milliard so'm, budjetdan tashqari ishlab topilgan mablag'lardan 4,1 milliard so'm mablag' davlat budjetiga to'lab berilgan.

Professional ta'lim muassasalarida ijtimoiy soliq stavkasini 12 foiz miqdorda qo'llanilsa ijtimoiy soliq sifatida to'lanadigan pul mablag'lar ta'lim muassasasi ixtiyorida qoladi hamda moliyaviy imkoniyatini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son Farmonga muvofiq yangi tashkil etilgan professional ta'lim muassasalari tomonidan o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlashda qo'shimcha moliyaviy mablag'larni jalb qilish majburiyatini yuklaydi.

Kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlarning moliyaviy mablag'laridan samarali foydalanish hamda daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, shu bilan birga qo'shimcha daromadlarni shakllantirish, kelajakda moliyaviy imkoniyatlarini to'g'ri belgilash orqali ta'lim sifatini yanada oshirish imkoniyati vujudga kelmoqda.

Respublikadagi professional ta'lim muassasalariga 2018-yilda davlat budjetdan 2,3 trillion so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 2,2 trillion so'mni tashkil qilgan yoki 4,4 foizga kamaygan (6-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, Ko'rilayotgan davrda davlat budjetdan ajratilgan mablag'lar miqdorining kamayishi professional ta'lim muassasalari soni qisqarishi bilan izohlanadi. Ya'ni, 2018-yilda kasb-hunar kollejlari 1469 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yil 704 ta professional ta'lim muassasasi sifatida faoliyat yuritgan yoki o'tgan 5 yil mobaynida 52,1 foizga kamaygan.

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

**Hududlar kesimida professional ta'limga ajratilgan budget mablag'larning ulushi va dinamikasi, mln.so'm<sup>11</sup>**

Hududlar nomi	2018-yil		2019-yil		2020-yil		2021-yil		2022-yil	
	Budjet mablag'i	Respublikaga nisbatan %	Budjet mablag'i	Respublikaga nisbatan %	Budjet mablag'i	Respublikaga nisbatan %	Budjet mablag'i	Respublikaga nisbatan %	Budjet mablag'i	Respublikaga nisbatan%
<b>Respublika bo'yicha</b>	<b>2337890,4</b>	<b>100</b>	<b>2337936</b>	<b>100</b>	<b>1253730,0</b>	<b>100</b>	<b>1722936,0</b>	<b>100</b>	<b>2224991</b>	<b>100</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	173 905	7,4	173 822	7,4	98994	7,9	107319	6,2	139 646	6,28
<i>viloyatlar:</i>										
Andijon	181 643	7,8	181 714	7,8	85 501	6,8	142 014	8,2	180 008	8,09
Buxoro	129 259	5,5	129 320	5,6	65 296	5,2	97 583	5,7	115 816	5,21
Jizzax	106 386	4,6	106 401	4,6	63 181	5,0	80 334	4,7	97 450	4,38
Qashqadaryo	208 942	8,9	208 973	8,9	112 707	9,0	126 284	7,3	158 378	7,12
Navoiy	89 115	3,8	89 158	3,8	37 093	3,0	74 878	4,3	90 452	4,07
Namangan	193 012	8,3	193 116	8,3	104 989	8,4	131 870	7,7	157 112	7,06
Samarqand	267 343	11,4	267 215	11,4	144 822	11,6	176 183	10,2	217 617	9,78
Sirdaryo	174 175	7,5	174 219	7,4	37863	3,0	55238	3,2	70 715	3,18
Surxondaryo	68 938	2,9	68 928	2,9	87259	7,0	106304	6,2	131 741	5,92
Toshkent	169 355	7,2	169 335	7,3	94 474	7,5	128 336	7,4	170 202	7,65
Farg'ona	228 548	9,8	228 420	9,8	104 692	8,4	147 359	8,6	190 609	8,57
Xorazm	114 158	4,9	114 164	4,9	61 233	4,9	97 673	5,7	117 583	5,28
Toshkent sh.	233 110	10,0	233 152	9,98	155 626	12,4	251 561	14,6	387 662	17,42

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



Tahlillardan ko‘rinadiki, hududlar kesimida professional ta‘lim muassasalariga ajratilgan mablag‘lar ulushi (2022-yil) Toshkent shahri (17,4%), Samarqand (9,9%), Farg‘ona (8,6%) va Andijon (8,1%) viloyatlarida yuqori. Jumladan, Toshkent shahridagi professional ta‘lim muassasalariga ajratilgan mablag‘larini ulushi 2018-yildagi 10,0 foizdan 2022-yilda 17,4 foizga ortib, davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar boshqa hududlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichni tashkil qilgan. Toshkent shahridagi ta‘lim muassasalari soni 2018-yilda 79 tani, 2022-yilda 29 tani tashkil qilgan. Lekin davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘larni oshirishi tayyorlanadigan kadrlar sonini ortganligi, ya‘ni o‘quvchilar soni 2020-yildagi 11 661 nafardan 2022-yilda 24 844 nafarga yoki 2,1-martaga ortgan. Demak iqtisodiyotni malakali o‘rta bo‘g‘im mutaxassislariga bo‘lgan talabi oshgan.

Sirdaryo viloyatida professional ta‘lim muassasalariga ajratiladigan mablag‘larini ulushi respublikada 2018-yildagi 7,5 foizdan 2022-yilda 3,2 foizga kamaygan. Viloyatga davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar boshqa hududlarga nisbatan kam ko‘rsatkichni tashkil qilgan. Mazkur holat Sirdaryo viloyatida ta‘lim muassasalari soni sonining kamayganligi bilan izohlanadi. Jumladan, viloyat bo‘yicha professional ta‘lim muassasalari soni 2018-yildagi 49 tadan 2022-yilda 23 taga yoki 53,1 foizga qisqargan. Ushbu viloyatda o‘rta bo‘g‘im mutaxassislariga bo‘lgan talab kamaygan yoki sun‘iy kamaytirilgan.

Ushbu ko‘rsatkichlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Andijon viloyati bo‘yicha tahlil qilganda quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2018-yilda 95 ta kasb-hunar kollejlariga 173,9 milliard so‘m mablag‘ davlat budjetidan ajratilgan bo‘lsa, ya‘ni davlat budjetini 7,4 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilda 49 ta professional ta‘lim muassasalariga 136,6 milliard so‘m mablag‘ davlat budjetini 6,3 foizini tashkil qilgan. Ta‘lim muassasalari soni 2 barobarga qisqartirilgan, lekin kadrlar tayyorlashga bo‘lgan xarajatlarni oshishi, ya‘ni o‘rta bo‘g‘im kadrlar tayyorlashni oshiradigan bevosita xarajatlar, tayyorlanadigan kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quvchilar sonining oshishi, xom-ashyo materiallari xarajatlar, ta‘lim muassasalarini saqlash xarajatlarini, moddiy texnik bazani mustahkamlash xarajatlar, o‘quv metodik ta‘minot materiallari xarajatlari yillar davomida o‘zgarib kelishi aks ettiradi. Shu bilan birga, professional ta‘lim muassasalari investitsiya dasturlari asosida joriy va kapital ta‘mirlash xarajatlarini moliyalashtirilishi davlat budjetidan ajratilgan mablag‘larni oshirilishiga ta‘sir qilgan.

Ma‘lumki, professional ta‘lim muassasalariga davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘larni ortishi tayyorlanadigan kadrlar sonini ortishiga qarab o‘zgarib boradi.

7-jadvaldan ko‘rinadiki, 2018-2022-yillar mobaynida professional ta‘lim muassasalariga respublika budjetidan ajratilgan mablag‘lar o‘zgarishi kuzatilgan. Jumladan, professional ta‘lim muassasalarini moliyalashtirish maqsadida respublika budjetidan ajratilgan mablag‘lar miqdorini bevosita ta‘lim muassasalari sonini kamayishi hisobiga ayrim hududlarda oldingi yillarga nisbatan kamayishi kuzatilgan. Bu ko‘rsatkich 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 100,0 foiz, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 137,4 foizni, 2022-yilda 2018-yilga nisbatan 95,2 foizni tashkil qilgan.

**Respublika budjetidan mablag‘ bilan ta‘minlanadigan professional ta‘lim muassasalariga  
ajratilgan mablag‘lar dinamikasi (mln.so‘m)<sup>12</sup>**

<b>Hududlar nomi</b>	<b>2018-yil</b>	<b>2019-yil</b>	<b>2019-yilda 2018-yilga nisbatan, foiz</b>	<b>2020-yil</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2021-yilda 2020- yilga nisbatan, foiz</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2022-yilda 2018-yilga nisbatan, foiz</b>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	173 905	173 822	99,9	98994	107319	108,4	139 646	80,3
<i>viloyatlar:</i>								
Andijon	181 643	181 714	100,0	85 501	142 014	166,1	180 008	99,1
Buxoro	129 259	129 320	100,1	65 296	97 583	149,4	115 816	89,6
Jizzax	106 386	106 401	100,0	63 181	80 334	127,1	97 450	91,6
Qashqadaryo	208 942	208 973	100,0	112 707	126 284	112,0	158 378	75,8
Navoiy	89 115	89 158	100,1	37 093	74 878	201,9	90 452	101,5
Namangan	193 012	193 116	100,1	104 989	131 870	125,6	157 112	81,4
Samarqand	267 343	267 215	99,9	144 822	176 183	121,7	217 617	81,4
Sirdaryo	174 175	174 219	100,0	37863	55238	145,9	70 715	40,6
Surxondaryo	68 938	68 928	99,9	87259	106304	121,8	131 741	191,1
Toshkent	169 355	169 335	99,9	94 474	128 336	135,8	170 202	100,5
Farg‘ona	228 548	228 420	99,9	104 692	147 359	140,8	190 609	83,4
Xorazm	114 158	114 164	100,0	61 233	97 673	159,5	117 583	103
Toshkent sh.	233 110	233 152	100,0	155 626	251 561	161,6	387 662	166,3
<b>Respublika bo‘yicha</b>	<b>2337890,4</b>	<b>2337937,0</b>	<b>100,0</b>	<b>1253730,0</b>	<b>1722936,0</b>	<b>137,4</b>	<b>2224991,0</b>	<b>95,2</b>

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu ko'rsatkichlarni 2018-2019-yillarda o'zgarishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son Farmoniga muvofiq 2018/2019 o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim maktablarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzluksiz va 11 yillik muddatda hamda 2019/2020 o'quv yilidan boshlab kasb-hunar kollejlariga o'qishga qabul qilish umumta'lim maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari hisobidan, ixtiyoriylik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo'lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo'lgan o'qitish muddatlarida amalga oshirilishi belgilanganligi sababli kasb-hunar kollejlarida o'quvchilar qabulini tashkil etilmagan. Faqatgina 2-3-bosqich o'quvchilar uchun respublika budjetidan mablag'lar ajratilganligi aniqlanib tahlil qilindi.

Kasb-hunar ta'limi tizimi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son Farmoniga muvofiq qayta tashkil qilinganligi hamda 2020/2021 o'quv yilidan boshlab professional ta'lim muassasalarida o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yilganligi sababli professional ta'lim muassasalariga respublika budjetidan ajratiladigan mablag'lar miqdori yillar kesimida oshirib borilganligi aniqlandi.

Respublika miqyosida professional ta'lim muassasalariga ajratilgan mablag'lar miqdori 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 137,4 foizga, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 129,1 foizga ko'p respublika budjetidan mablag' ajratilgan.

Ushbu ko'rsatkichlar boshqa hududlarga nisbatan kam o'zgarganligi, ya'ni Qashqadaryo viloyatida 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 112,0 foizga, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 125,4 foizga oshgan. Bu esa kadrlar tayyorlash xarajati oshgani bilan o'quvchilar sonini kamayganligi o'rganildi. Ta'lim muassasalarida kadrlarga bo'lgan talab ortishi bilan respublika budjetidan ajratiladigan mablag'lar miqdori ortib boradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda respublika budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan professional ta'lim muassasalariga 139 646 mln. so'm ajratilgan bo'lib, bu miqdor 2019-yilga nisbatan 19,7 foizga kamaygan (8-jadval).

8-jadvaldan ko'rinadiki, 2019-2022-yillarda Surxondaryo viloyati (91,1%), Toshkent shahri (66,3%), Xorazm viloyati (3,0%) va Navoiy (1,5%) viloyati professional ta'lim muassasalariga ajratilgan mablag'lar miqdori ortgan, qolgan barcha hududlarda esa kamaygan. Tahlil qilinayotgan davrda birinchi guruh xarajatlari 21,4 foizga, ikkinchi guruh xarajatlari 17,6 foizga, to'rtinchi guruh xarajatlari 15,4 foizga qisqargan.

**8-jadval**

**Respublika budjetidan mablag‘ bilan ta‘minlanadigan professional ta‘lim muassasalariga ajratilgan mablag‘lar**  
(mln.so‘m)<sup>13</sup>

Hududlar nomi	2019-yil				2022-yil				2022-yilda 2019-yilga nisbatan o‘zgarishi			
	jami	1-guruh	2-guruh	4-guruh	jami	1-guruh	2-guruh	4-guruh	jami	1-guruh	2-guruh	4-guruh
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	173 822	113 020	26 785	34 017	139 646	88 814	22 069	28 762	80,3	78,6	82,4	84,6
<i>viloyatlar:</i>												
Andijon	181 714	125 631	30 786	25 297	180 008	114 976	28 512	36 521	99,1	91,5	92,6	144,4
Buxoro	129 320	85 686	20 276	23 358	115 816	68 112	16 910	30 794	89,6	79,5	83,4	131,8
Jizzax	106 401	68 776	16 441	21 184	97 450	59 831	14 856	22 763	91,6	87,0	90,4	107,5
Qashqadaryo	208 973	149 192	35 588	24 193	158 378	101 085	25 078	32 215	75,8	67,8	70,5	133,2
Navoiy	89 158	58 546	13 878	16 734	90 452	52 857	13 117	24 478	101,5	90,3	94,5	146,3
Namangan	193 116	135 721	33 160	24 235	157 112	103 291	25 620	28 202	81,4	76,1	77,3	116,4
Samarqand	267 215	188 029	45 572	33 615	217 617	137 794	34 289	45 533	81,4	73,3	75,2	135,5
Sirdaryo	174 219	113 526	28 412	32 281	70 715	41 315	10 266	19 134	40,6	36,4	36,1	59,3
